

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN TO'QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
Namangan to'qimachilik sanoati
instituti rektori
 Q.M.Xoliqov
2024 yil "26" 08.

ILMIY IZLANISH ASOSLARI
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000	San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	210 000	San'at
Ta'lim yo'nalishi:	60210400	Dizayn (kostyum)

Fan/ modul kodi IIA2606		O'quv yili 2024-2025	Semestr 6	Kreditlar 6
Fan /modul turi Tanlov		Ta'lim tili o'zbek		Haftadagi dars soatlari 6
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Ilmiy izlanish asoslari	90	90	180
2.	I. Fanning mazmuni: Fanni o'qitishdan maqsad –“Ilmiy izlanish asoslari” fani tanlov fanlari blokiga mansub bo'lib, ushbu blok va boshqa bloklardagi fanlarni qisman to'ldiradi va shu bilan birga ularni mazmuniga asoslanadi. Shuningdek talabalarni mustaqil ilmiy tadqiqotlar olib borishi va BMI tayyorlashda ham foydalanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni beradi, talabalarni ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirish, talabalarda ilmiy masalalarni yechish, ulardan amaliy ko'nikma hosil qilish hamda tadqiqotlarni natijalarini tahlil qilishni o'rganishdan iborat. Fanning vazifasi - Ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida ularni ilmiy masalalarini hal etishni hamda ishlanmalar yozishni o'rgatadi. Texnika va texnologiyalarni rivojlanishi o'z navbatida ilmiy tekshirish ishlari, ixtirochilik va patent - litsenziya ishlarini rivojlanishiga ham bog'liqdir. Bundan tashqari texnologik jarayonlarini tadqiq etishda matematik rejalashtirish va tadqiqot natijalari bo'yicha matematik modellarini olish, hamda asosiy texnologik jarayonlarining tegishli parametrlarini o'lchashning zamonaviy usullarini o'rganishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Ilm- fan haqida tushunchalar va ilmiy – texnik taraqqiyot. Fan va texnika rivojining shaxsga ta'siri. Fan va texnikaning sanoat rivojiga ta'siri. Zamonaviy muhandisga qo'yiladigan talablar. Ilm-fan tushunchasi. Ilmiy bilimlar tasniflanishi. Ilmiy faoliyat mazmuni. Zamonaviy ilm-fanning o'ziga xos xususiyatlari. Zamonaviy ilm-fanning besh asosiy xususiyatlariga (chizgilari). Inson va jamiyatning rivojlanishida ilm-fanning o'rni.			

2-mavzu. Xalqaro tan olingan QS - Quacquarelli Symonds World University Rankings tashkiloti tomonidan e'lon qilingan oliy ta'lim muassasalarining ilmiy tadqiqot rejalari va yutuqlari.

QS Stars reyting tizimi bo'lib, o'quv muassasasini batafsil ko'rib chiqish imkonini beradi va sizga qaysi universitetlar sizga qiziq bo'lgan maxsus mavzular, jumladan, dastur kuchi, imkoniyatlar, bitiruvchilarning ishga joylashishi, ijtimoiy mas'uliyat, inklyuzivlik va boshqalarni aniqlash imkonini beradi.

3-mavzu. Ilmiy-tadqiqot ishlarining turlari va ularni to'qimachilik sanoatidagi o'rni.

Ilmiy tadqiqotning ta'rifi va tasniflari. Fundamental tadqiqot. Ishlanma. Ilmiy tadqiqotning strukturasi. Muammoning qo'yilishi. Dastlabki faraz. Natijalarni tahlil qilish, solishtirish. Oxirgi xulosalar. Natijalari o'zlashtirish.

4-mavzu. Ilmiy texnikaviy informatsiyani tahlil qilish, ilmiy tadqiqotlar maqsadi va vazifasini ifoda etish.

Ilmiy tadqiqot muammosining qo'yilishi. Muammoni izlash. Muammoni qo'yish. Muammoni yoyish. Ilmiy ma'lumotlarni o'rganish va ishchi faraz. Ma'lumot manbasi va uni axtarish. Axborotni o'rganish etapi. Ishchi faraz. Ilmiy tadqiqotning usullari. Ilmiy abstraksiya qilish. Induktiv usul. Deduktiv usul. Induktiv usul. O'xshashlik. Modellashtirish.

5-mavzu. Tajribalarni rejalashtirish, amalga oshirish va natijalarini asoslash

Tajribalarning aktiv usullari passiv usullarga qaraganda hozirgi paytda mukammal ko'rinishlarda bo'lib, nisbatan birmuncha universal hisoblanadi, chunki aktiv tajribalar o'tkazish orqali ta'sir etuvchi omillar sathini tanlashda bir qancha erkinliklar mavjuddir.

6-mavzu. Ilmiy tadqiqot ishlari to'g'risidagi hisobotlarni rasmiylashtirish

ITI hisobotlariga qo'yiladigan talablar. ITI hisobotini na'munaviy tarkibi. Rasmiylashtirishning umumiy talablari va qoidalari. Referat, uning eng maqbul hajmi. Analitik sharh. Tadqiqot metodikasi. Ilova. Matn qismini tasvirlar, jadval va formulalarni rasmiylashtirish qoidalari. Ilmiy materiallarni nashr qilish. Ilmiy materiallarni nashrga tayyorlashning bosqichlari. Ilmiy materiallarni rasmiylashtirishning asosiy talablari. Patent sofligi. Taqriz olish tartiblari.

7-mavzu. Ilmiy maqolani rasmiylashtirish.

Maqolada ijtimoiy hayot hodisalari chuqur tahlil qilish, nazariy va

ommaviy jihatdan umumlashtirish. Davlat siyosati, iqtisodiyot, texnika, fan va madaniyatda erishilgan yutuqlar, ilg'or ish tajribalari ommalashtirish tanqid qilinadi.

8-mavzu. Ilmiy tadqiqotlar natijalarini joriy etilishi va samarasini aniqlash

Ilmiy mahsulot buyurtmachi yoki istemolchiga xisobotlar, yo'riqnomalar, metodika, muvaqqat ko'rsatmalar, texnikaviy shartlar texnikaviy loyixa va x.k. lar tarzida beriladi. Iqtisodiyotning ko'pgina soxalarida undan mavjud mahsulotni raqobatbardoshligini taminlash uchun takomillashtirish yoki yangisini yaratishda foydalaniladi.

9-mavzu. Intelektual mulk turlari.

"Intellektual mulk" atamasi. "Sanoat mulki" tushunchasi. Intellektual mulk (ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutuqlari) sohasini rivojlantirish.

10-mavzu. Intelektual mulklarni litsenziyalash.

Intellektual mulk sohasini rivojlantirish. Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari. Intellektual mulk muhofazasini mustahkamlash va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

11-mavzu. Seleksiya yutuqlari.

O'zbekiston Respublikasini "Seleksiya yutuqlari to'g'risi"dagi Qonun va uning ahamiyati. Hammualliflarga tegishli bo'lgan huquqlardan foydalanish tartibi. Seleksiya yutug'i patent berish haqidagi talabnoma.

12-mavzu. Sanoat namunalari. mahsulot belgisi. asosiy tushunchalar.

Sanoat namunalari. Sanoat namunasining patentga layoqatlilik shartlari. Sanoat namunasiga talabnomalarning tuzilishi va patentlash tartibi. Sanoat tovar belgilarining turlari va ularga talabnoma tuzish.

13-mavzu. Patent axborotini qidirish usullari.

Patent axboroti o'z ichiga texnik axborot, huquqiy axborot, iqtisodiy va boshqa axborot turlarini oladi. Aholining patent axborotidan foydalanishini engillashtirish uchun ixtisoslashgan patent jamg'arma va patent ma'lumotlar bazalari ishlab turibdi. Ular patent axborotini qidirish va zarur ma'lumotlarni tahlil qilishni osonlashtirish uchun ularni tartibga soladi va saqlaydi.

14-mavzu. Ijodiy faoliyatni rivojlantirish va yangi ixtirolarni yaratishning asosiy usullari.

Ijod, ijodiyot va ijodkorlik tushunchalari. Ijodiy fikrlash yangi buyumlar yaratilishi bilan xarakterlanib, uni hosil qilish uchun bilish faoliyatining o'zida

yangi motivatsiya va maqsadlarni yuzaga keltiradi. Kashfiyotning ishonchliligi.

15-mavzu. Ilmiy Tadqiqot Ishlarini xalqaro miqyosida baholash me'zonlari va samarasi.

Ilmiy izlanish-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish va hozirgi vaqtda qo'yilgan vazifalar. O'zbekiston PISA va TALIS xalqaro tadqiqotlarida haqida. Ilmiy-tadqiqot muassasalarini bazaviy ta'minlash tizimidan ilmiy-texnik vazifalarni hal qilishga qaratilgan maqsadli loyihalar.

III. Laboratoriya ishlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Laboratoriya ishlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ilmiy tadqiqotlarni tizimlashtirish.
2. Texnologik jarayonlardagi muammolarni aniqlash.
3. Ilmiy tadqiqot ishlari mavzularini tanlash.
4. Ilmiy – tadqiqot ishi va uni o'tkazishga tayyorlanish jarayoni.
5. Tajribalarni o'tkazish usullari va talablari.
6. Tajribalar natijalari bo'yicha parametrlar orasidagi bog'lanishlarni excel dasturiga kiritish.
7. Kompyuterda natijalarni qayta ishlash va grafik modellar qurish.
8. Ilmiy materiallar asosida Power Point dasturida slayd tayyorlash.
9. Ilmiy maqolalarni rasmiylashtirish.
10. Diplom loyiha ishlari va Magistirlik dissertatsiya ishlarini rasmiylashtirish.
11. "Scopus" bazasiga kiruvchi ilmiy jurnallardagi maqolalarni tahlil qilish.
12. "Scopus" hamda "Google scholar" bazalarida iqtiboslikni ko'paytirish.
13. Yevropa va AQSh patent idorasi va patentni olish talabnomasini tayyorlash.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

1. Fan va texnikaning sanoat rivojiga ta'siri
2. Zamonaviy muhandisga qo'yiladigan talablar
3. Ilmiy faoliyat mazmuni
4. Zamonaviy ilm-fanning o'ziga xos xususiyatlari
5. Inson va jamiyatning rivojlanishida ilm-fanning o'rni
6. Informatsiya manbalari, kitoblar, davriy matbuot, me'yoriy hujjatlar, patent hujjatlari, ilmiy tadqiqotlar hisobotlari, informatsiyaviy nashrlar, dissertatsiya va avtoreferatlar
7. Axborotni ishlab chiqarish samaradorligi, ko'chirma annotatsiya, konspektlar, ishlanayotgan informatsiyani eslab qolish usullari
8. Ilmiy tadqiqot muammosining qo'yilishi. Muammoni izlash

	9. Ilmiy tadqiqotning usullari 10. Eksperiment o'tkazish jarayoni loyihasi 11. ITI hisobotini namunaviy tarkibi 12. Ilmiy materiallarni nashrga tayyorlashning bosqichlari 13. Fan ijtimoiy ishlab chiqarish turlaridan biri sifatida 14. Fundamental va nazariy tadqiqotlarni samaradorligi 15. Amaliy ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar baxolash mezonlari 16. Intelektual mulk. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3.	V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari Talaba bilishi kerak: Ilmiy tadqiqotlar to'g'risida asosiy tushunchalarni. ITI larining natijalariga ishlov berish va taxlil qilish usullarini. - Texnikaviy va ilmiy echimlarni muqobillash. Ilmiy echimlar bo'yicha xulosa va tavsiyalar ishlab. - - Intellektual mulk ob'ektining ta'rifi, terminlari, ixtiro, sanoat namunasi, foydali model, mahsulot belgilari to'g'risidagi tushunchalarni. - Ilmiy - texnik ekspertiza o'tkazish tartiblarini. - Intellektual mulk ob'ektlarining amalga oshirishni rejalashtirish va tashkil etishni. - Tadqiqotlarni matematik rejalashtirish usullari xaqida. - Texnologik masalalarni xal etishda kompyuterdan foydalanish. - Qo'yilgan muammoni xal etishda qidiruv tadqiqotlarini tashkil etish. - Patentlar bilan ishlash ko'nikma va tajribasiga ega bo'lishi zarur. • Ilmiy tadqiqotlar to'g'risida asosiy tushunchalar, ITI larining natijalariga ishlov berish va taxlil qilish usullari, texnikaviy va ilmiy yechimlarni muqobillash haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</i> • Intellektual mulk ob'ektining ta'rifi, terminlari, ixtiro, sanoat namunasi, foydali model, mahsulot belgilari to'g'risidagi tushunchalar, ilmiy - texnik ekspertiza o'tkazish tartiblari, intellektual mulk ob'ektlarining amalga oshirishni rejalashtirish va tashkil etish va tadqiqotlarni matematik rejalashtirish usullari xaqida <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</i> • Texnologik masalalarni xal etishda kompyuterdan foydalanish, qo'yilgan muammoni xal etishda qidiruv tadqiqotlarini tashkil etish, patentlar bilan ishlash tajribasidan samarali foydalana olish <i>ko'nikmalariga ega bo'lish malakalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)</i>
4.	V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlashlar, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalash.
5.	VI. Kreditlarni olish uchun talablar:

	Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. L.A.Amzaev, Q. J. Jumaniyozov, S.L.Matismailov. Tadqiqotning uslub va vositalari - T; G'afur G'ulom nashriyoti. 2014y. 190 bet. 2. U.Meliboyev. To'qimachilik sanoati texnologik jarayonlarini modellashtirish asoslari – O'quv qo'llanma, Namangan 2020 y. 3. Севастьянов А.Г. Методы и средства исследования механико – технологических процессов текстильной промышленности: Учебник для вузов – Москва: МГТУ, 2007. – 646 с. Qo'shimcha adabiyotlar: 1. "Intellectual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston respublikasi prezidentining 2019-yil 8-fevraldagi PQ-4168-son Qaror. 2. "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellectual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston respublikasi prezidentining 2019-yil 1-iyuldagi PQ-4380-son Qaror. 3. Amzaev L.A. Tadqiqotni ilmiy asoslari va texnologik jarayonlarni muqobillash. Toshkent. 2008 y. 4. O'zbekiston Respublikasining ixtirolar to'g'risidagi qonunlari: Toshkent, Metodik qo'llanma, 1996 yil. 5. Djumaxodjaev A. «Patentshunoslik», darslik , Toshkent, «Mehnat» , 2001 y. Axborot manbalari: 1. www.ziyounet.uz -Ta'lim portali. 2. http://titli.uz 3. http://nammti.uz 4. www.ima.uz 5. www.globalpatent.ru 6. www.ebsco.com 7. www.scopus.com 8. www.natlib.uz
7.	Fanning o'quv dasturi Namangan to'qimachilik sanoati instituti Kengashining 2024-yil "26" 08 "1"-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	Fan modul uchun mas'ullar: M.A.Nazarova - Namangan to'qimachilik sanoati instituti "Dizayn" kafedrası mudiri, PhD.

	S.A.Yusupov– Namangan to‘qimachilik sanoati instituti “Ta’lim sifatini nazorat qilish” bo‘lim boshlig‘i t.f.n. dotsent. I.Xakimjanov - Namangan to‘qimachilik sanoati instituti “Dizayn” kafedrası assistenti.
9.	Taqrizchilar: J.S.Ergashev- Namangan to‘qimachilik sanoati instituti “To‘qimachilik dizayni ” fakulteti dekani, t.f.d. professor.